

Единый портал корпоративной информации

Объявления

"Mikrokreditbank" ATB

Объявление

"MIKROKREDITBANK" AKSIYADORLIK-TIJORAT BANKI

АКЦИЯДОРЛАРНИНГ НАВБАТДАН ТАШҚАРИ УМУМИЙ ЙИҒИЛИШНИ ЎТКАЗИЛИШИ
ТЎҒРИСИДА ЭЪЛОН

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki aksiyadoriga

HURMATLI AKSIYADORLAR!

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi 2023-yil 28-dekabr kuni, soat 10:00 dan boshlab, Toshkent shahri, Lutfiy ko‘chasi, 14-uy manzilida joylashgan “Mikrokreditbank” ATB majlislar zalida o‘tkazilishini ma’lum qiladi.

Yig‘ilish kun tartibi:

1. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.
2. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining joylashgan yerini (pochta manzilini) o‘zgartirish.
3. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki ustav kapitalini kamaytirish.
4. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Ustaviga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish.
5. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan Aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish hamda avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan Aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar matnini tasdiqlash.
6. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

“Mikrokreditbank” ATB Kuzatuv kengashining 2023-yil 4-dekabrda majlisi qaroriga asosan, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar reestri 2023-yil 22-dekabr kuni holatiga hamda umumiy yig‘ilish o‘tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar qilish uchun aksiyadorlar reestri 2023-yil 4-dekabr kuni holatiga tuziladi.

Aksiyadorlarni ro‘yxatga olish 2023-yil 28-dekabr kuni soat 09:00 dan 09:50 gacha davom etadi.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida shaxsini tasdiqlovchi hujjat va yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida qatnashadi, yuridik shaxs nomidan berilgan ishonchnoma qonunchilikda belgilangan tartibda, jismoniy shaxs nomidan berilgan ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida videokonferens-aloqa tarzida ishtirok etuvchi aksiyadorlarga bu haqda qo‘shimcha ma’lumot beriladi.

Yig'ilish o'tkazish bo'yicha qo'shimcha axborot, unda ko'riladigan masalalarning hujjatlari bilan yuqoridagi manzilga va quyidagi telefon raqamlariga murojaat qilish hamda bankning korporativ veb-sayti (www.mikrokreditbank.uz (<http://www.mikrokreditbank.uz/>)) orqali tanishish mumkin.

Tel: 998 (71) 202-99-99 (1304)

Bank Kuzatuv kengashi

06.12.2023

Источник: <https://openinfo.uz/uz/announce/16552/>

Дата: 25.06.2026